

Tadbirkorlikka qadam «Asaka» bank bilan

Yurtimizdagi bugungi yuksalish omillari, iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlarini bank muassasalarining faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xususan, mustaqillik yillarida milliy iqtisodiyotimizning tayanch ustuni sifatida rivojlanayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni muntazam qo'llab-quvvatlash borasida bank muassasalari tomonidan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb etish borasida belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirish maqsadida «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki Andijon viloyat filali tomonidan fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga keng imkoniyatlar yaratish uchun tadbirkorlarga moliyaviy ko'mak va madad berishning yangi usullari joriy etildi. Bank filiali malakali mutaxassislari aholini tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatish va shunga yetaklash maqsadida ularning bank xizmatlari va kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini o'rganib chiqmoqda, aholi xonadonlariga tashrif buyurib, ular bilan o'tkazayotgan muloqotlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun ajratilayotgan kreditlar, ularning shartlari, kredit hujjatlari va garov ta'minoti to'g'risida batafsil tushuntirishlar bermoqdalar. O'z navbatida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarga namunaviy loyihalar taklif etilib, ularga kredit hujjatlarini tayyorlash bo'yicha tegishli maslahatlar berilmoqda va qisqa muddatlarda kredit mablag'lari ajratish choralari ko'rilmoqda. «Asaka» bank tomonidan aholiga **25** yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha imtiyozli shartlarda kreditlar taklif etilmoqda. Bank filiali mutaxassislari Oltinko'l va Asaka tumanlaridagi **15**ta qishloq va mahalla fuqarolar yig'inidagi **11966**ta xonadonga tashrif buyurib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tushuntirish va tavsiyalar berdilar, **13219**ta xonadonga tadbirkorlikka da'vat etilib murojaatlar yuborildi. Bu tadbirlar natijasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan **1060** nafar fuqaroga **6,8 mlrd.so'm**ga yaqin miqdorda kreditlar ajratildi.

Keyingi yillarda bank filiali tomonidan mijozlar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Ishbilarmonlar uchun alohida tadbirkorlar xonasi, plastik kartalar bilan ishlash bo'limida mijozlar uchun maxsus kutish zali, aholining kommunal to'lovlarini amalga oshirishlari uchun maxsus xodimlar biriktirilganligi, nafaqa olishga keluvchi pensionerlar uchun qishki va yozgi dam olish joylari shular jumlasidandir. Bu kabi e'tibor tufayli aholining bankka bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda.

Bank filiali tomonidan viloyat iqtisodiyotining muxim tarmoqlarini rivojlantirishga ajratilgan kreditlar hajmini ko'paytirish barobarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida ham muhim yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 2017 yil 1 yanvar holatiga bank filiali kredit portfeli hajmi **77,5 mlrd.so'm**ni tashkil etdi. E'tiborlisi, kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi. 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish uchun **45,3 mlrd.so'm** miqdorida kreditlar ajratildi. Bu mablag'lar viloyatda ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, viloyat iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga

munosib ulush bo'lib qo'shildi. Mazkur sarmoyalar evaziga qo'shimcha ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlar, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan ta'minlashga erishildi.

Hamkorligimiz mustahkam

-Bir necha yildan beri «Asaka» bank xizmatlaridan foydalanyapman, deydi Baliqchi tumanidagi **«Sadaf niholi» fermer xo'jaligi rahbari Halimjon Karimov.** - Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Eng avvalo, mazkur bankda mijozlarga taklif etilayotgan yuqori sifatli xizmat turlari ko'p. Aytaylik, savdo faoliyati uchun aylanma mablag'larni to'ldirish, transport vositasi xarid qilish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, ko'p qavatli uylardan kvartira sotib olish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun sarmoyalar, qo'yingki, deyarli barcha yo'nalishlardagi kredit mablag'lari faoliyatingizni mustahkamlashda asqotishi turgan gap. Masalan, birgina qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida uzumchilik, chorvachilik, parrandachilik sohalarini rivojlantirish uchun imtiyozli kredit mablag'lari ajratib boriladi. Uzumchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligimizning 22,1 gektar yer maydoni bor. Uzunning «Rizamat ota», «Kelinbarmoq», «Husayni» singari sanoatbop navlari yuqori agrotexnik qoidalar asosida parvarish qilinmoqda. Bundan tashqari, olma, gilos, anor mevalaridan yuqori sifatli hosil yetishtirishga intilmoqdamiz. Faoliyatimizni kengaytirish va intensiv texnologiyaga asoslangan yangi tokzorlar barpo etish maqsadida «Asaka» bank Andijon viloyat filialidan imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit olganmiz. Bu moliyaviy madad evaziga faoliyatimizni bugungi kun talablari asosida tashkil etyapmiz. Eng muhimi, buning natijasida mahallamiz yoshlari uchun 10 nafar qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi. Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik yo'lini tanlagan hamyurtlarimizni ishonchli qo'llab-quvvatlab kelayotgan «Asaka» bank xizmatlaridan ko'nglimiz to'q.

Kredit evaziga – yangi mahsulot

- Keyingi yillarda yurtimizda yengil sanoat, xususan, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda, - deydi Andijon shahridagi **«Sanoat real imkoni» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Abdurahim Soliev.** - Bu davlatimiz va hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni ishonchli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Qaror va Farmonlarning izchil ijrosi samarasi, albatta. Bizning korxonamiz ham trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Faoliyatimizni kengaytirish hamda zamon talablari asosida modernizatsiya qilish maqsadida o'tgan yili «Asaka» bankning Andijon viloyat filialiga murojaat qildik. Mutaxassislar korxonamiz faoliyati bilan tanishgach, kredit ajratishga qaror qilishdi. Bank krediti hisobiga xorijdan zamonaviy trikotaj-tikuv dastgohlari xarid qildik. Natijada bir oyda 600 ming dona mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. 10 nafar xotin-qiz uchun yangi ish o'rinlari vujudga keldi. Aytmoqchimanki, «Asaka» bank mijozning dardini, istagini chin dildan his qilsa, uni qo'llab-quvvatlasa, yurtdoshlarimizning unga nisbatan qiziqishi, ishonchi ortib boraveradi. «Asaka» banki jamoasi, avvalo, shu jihatlari bilan o'z reytingini mustahkamlab borayotir.

Turizm rivojiga hissa

- «Asaka» bank Andijon viloyat filiali bilan doimiy hamkorlik o'rnatganining ikkita muhim sababi bor, - deydi **«Andijon Mobile» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Elyorbek Turdiev**. – Birinchisi, bank mutaxassislari tadbirkorning maqsad-muddaosini tezda anglashadi va kerak bo'lsa, yumushingizni osonlik bilan hal etish uchun maslahat va yo'l-yo'riqlarini ham berib borishadi. Ikkinchi muhim sababi, kredit mablag'lari qisqa vaqt ichida ajratiladi. Bu esa, tadbirkor uchun chanqab turgan giyohga suv quygandek gap. Yurtimizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan e'tibordan ruhlanib, mehmonxona xizmatini tashkil etganmiz. O'tgan yili bank kredit hisobiga Andijon shahridagi «Karvonsaroy» mehmonxonasi binosini qurilish va jihozlash ishlarini yakunlashga erishdik. 10 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Faoliyatimizni jahon andozalari darajasida tashkil etishga intilyapmiz. Bu yo'lda bizni beg'araz qo'llab-quvvatlab kelayotgan «Asaka» bankning Andijon viloyat filiali mutaxassislaridan minnatdormiz.

Xulosa o'rnida aytganda, yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bank-moliya tizimidagi o'sish va barqarorlik «Asaka» bankning Andijon viloyat filiali misolida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Eng avvalo, mijozlar ehtiyojining inobatga olinishi, bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmat turlari sifatining bosqichma-bosqich oshirib borilayotgani yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga xizmat qilishi shubhasiz. Bu jihatlar 2017 yil - «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da yangi bosqichga ko'tarilishi shubhasiz.

Bank Axborot xizmati